



UDK: 37.032

**Dilbar SAMIYEVA,**  
Tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy, O'zbekiston  
E-mail: dilbarshukrullayevna@gmail.com

PhD Y.Narzulloev taqrizi asosida

## DEVELOPING CREATIVE THINKING IN ADOLESCENT STUDENTS

Annotation

This article studies the development of creativity in high school students, analyzes the structure and content of this process from a psychological perspective. Theoretical approaches to defining creativity, its relationship with creative work and its impact on the individual are studied. Particular attention is paid to the role of creativity in the formation of socio-psychological characteristics of students. The need for further improvement of such programs and additional research is justified in order to understand the factors affecting the development of creativity in adolescents.

**Key words:** creativity, creative thinking, creative thinking, personal development, socio-psychological characteristics, high school students.

## РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье исследуется развитие креативности у старшеклассников, анализируется структура и содержание этого процесса с психологической точки зрения. Рассматриваются теоретические подходы к определению креативности, её связи с творческим трудом и влияния на личность. Особое внимание уделяется роли креативности в формировании социально-психологических характеристик учащихся. Обосновывается необходимость дальнейшего совершенствования подобных программ и проведения дополнительных исследований для понимания факторов, влияющих на развитие креативности у подростков.

**Ключевые слова:** креативность, творческое мышление, личностное развитие, социально-психологические характеристики, старшеклассники.

## O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqola o'rta maktab o'quvchilarida ijodkorlikning rivojlanishini o'rganadi hamda ushbu holatning mazmun va mohiyati psixologik tarafdin yoritib beriladi. Ijodkorlikni qanday aniqlasa bo'ladi, shunga oid olimlarning fikrlari va o'quvchilarda faoliyat orqali rivojlantirish mumkinligi yoritib o'tilgan. Ijodkorlik o'quvchida ijtimoiylashuv sifatlarini rivojlantirishi ta'kidlangan. O'smir yoshdagi o'quvchilarda ijodkorlikning shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi, nimalarga e'tibor qaratishimiz lozimligi yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** O'smirlik davri, shaxs, o'quvchi, kreativ fikrlash, muammo, ijodiy fikrlash, ijodiy tafakkur.

**Kirish.** Shaxsning takrorlanmas va o'ziga xos jihatlari ijodkorlik tushunchasi bilan cheksiz bog'langan bo'lib, ushbu jarayon inson kamolotining muhim psixologik-pedagogik omillaridan biri sifatida aks etadi. Bu xususan, prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev – "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" – deb ta'kidlaganlar.[1]. O'smirlik davri bir qancha olimlar tomonidan aqliy hamda va shaxsiy o'sishda keskin yangilanishlar vaqti deya ta'rif berganlar. Bu o'ziga xos jihatlarni tarkib toptirish, faol bo'lish, intellektual jarayonlarni takomillashuv davri hisoblanadi. O'smirlik davrida o'quvchi bir-biriga to'g'ri kelmagan holatlarga ro'bo'bo'ladi. Atrofdagi tushunchalarning mavhum holatdaligi, o'smir o'quvchini boshqa tomonlarni izlashga undaydi. Bu narsa o'smirning ijodiy salohiyatini jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorlik – bu muammolarga yechim topishda, muloqot qilish jarayonida va o'zimizni va boshqalarni xursand qilishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan g'oyalarni, alternativalar yoki imkoniyatlarni yaratish yoki tan olish tendensiyasidir. Ijodkorlik nafaqat san'at yoki badiiy ijod bilan cheklanib

qolmaydi. Bu yuqori darajadagi qiziqish va tasavvurni o'z ichiga oladi [2].

Kreativ fikrlashni o'rgatish bugungi kun o'quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalari qo'llab hali yaratib ulgurilmagan joylarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga texnikalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ijodkorlikni o'rganish uzoq tarixga borib taqaladi. "Ijodkorlik" tushunchasi (lotincha creatio so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi) 1950-yillardan buyon psixologiya sohasida keng foydalanilgan va hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Mazkur mavzuni o'rganayotgan xorijiy psixologlar ichda F. Barron, J. Gilford, E.P. Torrance, S. Mednick, K. Rogers, J. Renzulli, R. Sternberg va boshqalar bor.

Ye.Torrens[4] tarafidan "Holat va harakatdagi ijodiy qobiliyatlar" testi ishlab chiqilgan bo'lib, bu test bolalarning ijodiy fikrlashi, ixtirochilikka moyilligini o'lchashga qaratilgan.

Abraham Maslow kreativlikni ikki turga ajratadi:  
Iste'dodning kreativligi

shaxsning o'z-o'zini faollashtirish kreativligi.

Har bir inson o'z faoliyati jarayonida, turmush tarzida, kasbiya faoliyati jarayonida albatta kreativ holatga duch keladi. A.X. Maslou kreativlikda o'z-o'zini rivojlantirishning ikki darajasini misol keltirgan:

Ixtiyorsiz kreativlikda shaxs tasodifan aqliga kelish, zavqlanish, qiyin kechinmalarga ega bo'ladi.

Ixtiyoriy, mashaqqatli yo'l ya'ni uzlusiz o'qish, maqsad sari intilish.

A.X. Maslou kreativlikni inson tabiatining asosiy jihati sifatida qaraydi, kreativlik jamiiki insonlarda tug'ma bo'lishi, ularning umri davomida sodir bo'ladigan ijtimoiy qarshiliklar sababli yo'q bo'lib ketadi, deb ta'kidlaydi.

S. Turchak[5] o'z faoliyati davomida mashhur ijodkor shaxslarning tarjimai holi bilan tanishib chiqqan, ular 19 nafar bo'lgan, ya'ni bastakorlar, rassomlar, haykaltaroshlar, yozuvchilar, olimlar.

1. Bu insonlar 95 foizida 10 yoshgacha bo'lgan davrda kelajakda muvaffaqiyatga erishgan fan yoki san'at sohasi bilan juda erta tanishgan.

2. Repondentlarning 53 foizida esa kreativ qobiliyatlarining rivojlanishida ularning ustozlari yetakchi o'rinda bo'lgan.

3. Kreativ insonlarning 15 yoshgacha bo'lgan davrda ijodkorlik aks eta boshlagan, bular 68,4 foizni tashkil qilgan.

Rus psixologiyasida "ijodkorlik" atamasi ko'pincha "ijodkorlik" bilan sinonim sifatida ishlatiladi. D.B. Bogoyavlenskaya, A.M. Matyushkin va Ya.A. Ponomarevning fundamental asarlari ushbu sohani o'rganishga muhim hissa qo'shgan. Shuningdek, V.N. Drujinin, V.I. Kozlenko, V.S. Yurkevich, E.L. Yakovleva va boshqa tadqiqotchilarning ishlari ham diqqatga sazovordir.

L.M. Azaryants, L.S. Vgot'skiy, V.N. Drujinin, L.B. Yermolaeva-Tomina, V.N. Kozlenko, N.S. Leites, A.A. Melik-Pashayev, B.M. Nemenskiy, S.O. Raevskiy, A.Z. Raximova, E.A. Flerina, B.P. Yusov, E.L. Yakovleva, J. Guilford, F. Baron, A. Maslou, D. Harrington va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari ijodiy fikrlash tuzilishi muammosini ishlab chiqishda tayanch hisoblanadi.[6]

Z. Nishonova esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishda divergent va konvergent tafakkur muhimligini ta'kidlagan [7].

F.A. Xayitova kreativ o'qish madaniyatiga: "kreativ o'qish madaniyati – shaxs va jamiyat qiziqishlari bilan bog'liqlikda o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy shart sharoitlar doirasiga taalluqli vazifalarni hal etishda insonning konstruktiv va original fikrlashga tayyorligidir" – deb ta'rif bergan.[8]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Zamonaviy ta'limda kreativ fikrlashni o'rganishga doir turli-tuman fikrlar, mulohazalar, yondashuvlar bor, lekin, chuqur, to'liq o'rganilmagan. Ijodkorlik juda qiyin jarayon, aynan bir turli mezonlar asosida baholab va o'lchab bo'lmaydi. Ijodkorlik inson umrining davomida har xil ko'rinishlarda aks etadi.

O'rta maktab o'quvchilarida mustaqil fikrlash, o'z qarashlarini himoya qilish, estetik did va ijodiy yondashuvga moyillik kuchayadi. Ular yangilikka intilib, o'z imkoniyatlarini turli faoliyatlarda sinab ko'radilar. Aynan shu davrda shaxsiy qadriyatlar, hayotiy maqsadlar va kelajak kasbiga oid tasavvurlar shakllana boshlaydi.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularni o'z fikrini erkin bayon etishga, munozara yuritishga va tanqidiy yondashishga o'rgatish zarur. O'quvchining mavjud muammolarga mustaqil fikr bildira olishi, munozarada o'z tushunchalarini himoya qila olishi bu albatta tanqidiy fikrlashning ko'rinishidir. Tanqidiy fikrlash nima uchun o'quvchiga kerak, ularning bilimlarni chuqur o'zlashtirishiga,

tashabbuskor va faol bo'lishiga, voqea-hodisalarga asosli baho bera olishiga yordam beradi. Natijada tushuncha, hukm va xulosa chiqarish kabi tafakkur jarayonlari takomillashadi.

**Tahlil va natijalar.** O'smirlik davrida nazariy tafakkur asosiy o'ringa chiqa boshlaydi. Sababi, o'smirlik davrida o'quvchilar atrofda voqea-hodisalarni yuksak darajada bilishga intiladilar, shuning uchun o'smirda bilishga bo'lgan qiziqish jadal ravishda rivojlanadi. Ham nazariy, ham ilmiy bilimlarni egallanishi o'smirda tafakkur rivojlanishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilarda o'smirlik davrida ijodiy fikrlash quyidagicha namoyon bo'ladi:

rivojlanish darajalari (ijodiy, evristik, intuitiv), aynan o'smirlikda nihoyasiga yetadi;

Ratsional va intuitiv va fikrlash darajalarining o'ziga xos funksional birligi sifatida, prelogik hamda mantiqiy tafakkur bir biri bilan sintezlanadi.

Tahlilda respondentlarning fikrlash va ijodkorlikning farqli tomonlarini baholashda bir qancha metodlardan foydalanilgan:

J. Bruner usuli yordamida fikrlash turlari va ijodkorlik darajalarini aniqlash. Ushbu test bizga o'quvchilarning asosiy fikrlash turlarini aniqlandi va ularning ijodiy qobiliyatlarini baholandi.

Mednik testi. Ushbu vosita turlicha fikrlashni, masalan, berilgan vazifaga ular bir nechta original fikrlarni yaratish qobiliyatini baholash uchun mo'ljallangan.

"Torrens aylanalari" ijodiy testida o'quvchilarga qog'oz va qalamlar beriladi, unda bir qancha doira shakllari chizilgan, ular doiradan asos sifatida foydalanib ko'p rasm chizishlari inobatga olinadi.

Tajribada 14-15 yoshgacha bo'lgan 30 nafar maktab o'quvchilari qatnashdilar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki ularning ijodiy fikrlashlarini rivojlantiruvchi dastur juda ham muhimligi namoyon bo'ldi.

Tadqiqotning aniqlash va nazorat bosqichlaridagi ma'lumotlarni solishtirganimizda qatnashchilar o'rtasida yaxshi natijani ifoda etdi. O'smir o'quvchilarning ijodiy ball olganlari ko'paydi, oz ballga ega bo'lganlari kamaydi.

O'tkazilgan metodikada aniqlovchi bosqichda ijodkorlik 23 foizda past, nazorat bosqichida 13 foizga pasayganligi namoyon bo'ldi. O'rtacha darajadagi qatnashchilar ulushi esa o'zgarishsiz saqlanib qolgan. Shu bilan birga, ijodkorlikning yuqori darajasidagi o'quvchilar ulushi 27 foizdan 37 foizgacha oshdi va bu ijobiy tomonga yo'nalganligini ko'rsatadi.

Mednik test metodologiyasiga ko'ra, aniqlash bosqichida bolalarning 33 foizida ijodkorlik darajasi past bo'lgan, ammo nazorat bosqichida bu ko'rsatkich 27 foizga tushgan. Ijodkorlikning o'rta darajasiga ega ishtirokchilar ulushi 47 foizdan 50 foizgacha oshganligi kuzatildi. Shuningdek, yuqori ijodkorlik darajasiga ega bolalar ulushi 20 foizdan 23 foizgacha ko'paygan bo'lib, bu ijobiy dinamikani ko'rsatadi.

Ellis Paul Torrance ijodkorlik test natijalariga ko'ra, tadqiqotning dastlabki bosqichida bolalarning 40 foizida ijodkorlik darajasi past bo'lgan bo'lsa, nazorat bosqichiga kelib ushbu ko'rsatkich 23 foizgacha kamaygan. O'rtacha darajadagi respondentlar ulushi 37 foizdan 47 foizgacha oshgan. Yuqori ijodkorlik darajasiga ega bolalar soni esa 23 foizdan 30 foizgacha ko'paygan.

O'tkazilgan "Ijodkorlik" metodikasi orqali o'quvchilarning faoliyatlarini tahlil qilganda ideal "men"larida kamayish bo'ldi, berilgan vazifalarga sadoqat va ma'suliyat bilan harakat etganliklarini ko'rsatdi.

Bu eksperimentda quyidagi natijalar aniqlandi.

- o'rta maktab o'quvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi.

- yuzaga chiqqan ijobiy o'zgarishlar bunday loyihalarni ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

#### O'smirlarda ijodiy fikrlash diagnostikasi natijalari

Diagnostika usuli	Bosqich	Past (%)	O'rtacha (%)	Yuqori (%)
J. Bruner / Ijodkorlik darajasi metodologiyasi	Aniqlash	23	50	27
	Nazorat	13	50	37
Mednik testi	Aniqlash	33	47	20
	Nazorat	27	50	23
Torrance ijodkorlik testi	Aniqlash	40	37	23
	Nazorat	23	47	30

**Xulosa va takliflar.** O'quv jarayonida o'quvchilarning ijodkorlik salohiyatidan foydalanish ularning bilimlarni samarali o'zlashtirishiga hamda ijodiy tasavvurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim nafaqat muhim, balki zamonaviy ta'lim tizimining zaruriy talabi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ijodiy fikrlashni samarali rivojlantirish faqat maxsus mashq va topshiriqlardan foydalanish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon o'quvchilarning tashabbuskorligi, mustaqil fikrlashi va erkin faoliyat yuritishini

qo'llab-quvvatlaydigan qulay ta'lim muhitini yaratishni ham talab etadi.

O'tkazilgan tadqiqot o'smirlar o'quvchilarda qaysi jihatlar kreativlik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishini yanada izchil o'rganish kerakligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari o'smirlarda ijodkorlikning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni yanada chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatdi.

Yoshlarning o'z imkoniyat va qobiliyatlarini, bilim va intellektual salohiyatlarini yetarlicha namoyon etishlari hamda ulardan kelajak hayotda to'g'ri foydalanishlari uchun ta'lim tizimining bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh.M. Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. 19-sentabr 2017-yil.
2. Abdusamatov H. (2022). SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF CHILDREN OF MIGRANT FAMILIES.
3. Muxtarova, L. A. (2018). Развитие и формирование критического мышления у школьников начальных классов. Гуманитарный трактат. (24), 13-14.
4. Torrance E.P. The nature of creativity as manifest in the testing // R.Sternberg, T.Tardis (eds.). The nature of creativity. Cambridge: Cambr. Press, 1998. – P. 43-75.
5. Турчак С.К. Педагогическое сопровождение развития креативности младших школьников: автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Ростов-наДону, 2007. – 24 с.
6. Borovetskaya V.V. Aql va ijodkorlik ikkita ortodoks omil sifatida // Ilmiy nuqtai nazar. 2015. № 6. P. 109–111.
7. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan dok....dis.- T., 2005.– 391 b
8. Xayitova Firuza Abdullaevna. Boshlang'ich sinflarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish texnologiyalari. Avtoreferat. Toshkent 2023 yil. 28 – b.